Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni
tergov qilishning kriminalistik jihatlari



Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash muammolari chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, unda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyati, demokratiyani shakllantirish muammolari bilan uzviy bog‘liqdir.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi mamlakat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida sodir bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi, bu esa jinoyat sodir etish usullariga ta’sir qilmay qolmaydi.

Jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Prezidentning “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni imzolandi. Mazkur hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi, 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi va 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyati aniq bir shaxsning emas, balki keng doiradagi odamlarning manfaatlariga ta’sir qilishidir[1].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 6-bo‘lim 17-bobi jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni o‘z ichiga olgan.

Jinoyat kodeksining 242-moddasida ko‘rsatilgan jinoiy uyushma tashkil etish jinoyati jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning xavflisidir. Jinoyat kodeksining 29-moddasiga asosan “Jinoiy uyushma – ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi”. Jinoiy uyushma guruh a’zolarining miqdori, uyushmaning tuzilishi va boshqa belgilariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Jinoiy uyushma tuzish yoki unga rahbarlik qilish jinoiy tuzilmani shakllantirish uchun nomzodlarni tanlash, ularni jalb qilish, jinoiy uyushma, guruh yoki uning bo‘linmalari ishtirokchilari o‘rtasida vazifalarni bo‘lish, jinoiy faoliyatning umumiy rejasi yoki alohida tajovuzlar rejasini tuzish kabi xatti-harakatlarda ko‘rinadi. Jinoiy uyushmaning yashashi va amal qilishiga qaratilgan faoliyatni olib borish jinoiy uyushma uchun pul, transport, xonalar ajratish, jinoiy uyushma yoki bo‘linmalarining ishlashi uchun shart-sharoit yaratish kabilarda namoyon bo‘ladi. Har qanday turdagi jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun jinoiy uyushmaga birlashishning o‘zi tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a’zolari tayyorgarlik ko‘rilishi yoki sodir etilishida o‘zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

R. Kolduyello uyushgan jinoyatchilikning sakkizta asosiy belgisini ajratib ko‘rsatgan: 1) jinoyat bilan shug‘ullanish maqsadida guruh tashkil etish; 2) hokimiyatning guruhning bir yoki bir nechta a’zolari qo‘lida markazlashuvi; 3) tashkilot ehtiyojlari uchun pul jamg‘arish; 4) yaxlit guruhning muayyan jinoyatlarga ixtisoslashuvi va guruh ichidagi funksiyalarning tarqalishi; 5) monopolistik tendensiyalar; 6) sudyalar, politsiyachilar, shifokorlar, siyosatchilar, ma’muriyat bilan munosabatlar tizimini yaratishda ifodalangan korrupsiya; 7) qat’iy intizomni o‘rnatish, belgilangan xulq-atvor qoidalariga qat’iy rioya qilish; 8) jinoiy operatsiyalarni ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish. Ushbu individual belgilar bir-birini batafsil bayon qilsa ham (masalan, 4- va 8-belgilar), umuman olganda, ular uyushgan jinoiy faoliyat nimadan iboratligi haqida aniq tasavvur beradi[2].

Jinoiy uyushmalar asosan terrorizm va ekstremizm, noqonuniy migratsiya va odam savdosi, narkotik moddalar va qurol savdosi; korrupsiya va jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, kontrabanda, reket, fohishalik, qimor o‘yinlari, genotsid, ekotsid va boshqa xalqaro jinoyatlar sodir etadi[3].

Uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy jamoalar sodir etgan jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotini tahlil kiladigan bo‘lsak, jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar yoki jismoniy va

[1] С.В. Максимов ва бошқалар. Мониторинг уголовной политики России. - Москва, 2014. - 482 с.
[2] https://knowledge.allbest.ru/law/3c0a65625a2ac68b4c43b88421216d27_0.html
[3] Козловская М.Г. Преступное сообщество: сравнительный криминолого-правовой анализ//Автореферат.,2021.

yuridik shaxslarning xabarlari asos bo‘lishi mumkin. Jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos sifatida esa ijtimoiy xavfli qilmishdan aniqlangan faktik ma’lumotlar va uning jinoiy guruh tomonidan sodir etilganlik izlari hisobga olinadi. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotini umumlashtirish natijasida ko‘rib chiqilayotgan jinoyatlarni tergov qilayotgan surishtiruvchi va tergovchilar uchun tergovning dastlabki bosqichida tergov harakatlarini o‘tkazish taktikasi bo‘yicha kriminalistik bilimlarni mohirona qo‘llash talab qilinadi[4].

Tezkor xodim tezkor kuzatish, eksperiment, hujjatlarni yoki jinoyatni ko‘rsatuvchi har qanday izlarni operativ o‘rganish natijalari ko‘rsatilgan ma’lumotnomani tergovchiga yuboradi. Shunga o‘xshash ma’lumotlarni uyushgan jinoiy guruhga kiritilgan tezkor xizmatlarning maxfiy agentlaridan ham olish mumkin. Ba’zan olingan ma’lumotlar o‘z tasdig‘ini topmasligi ham mumkin. Tergovchi bunday holatlarni bartaraf etish, ushbu materiallarning protsessual talablarga muvofiqligini aniqlash uchun ularni diqqat bilan va to‘g‘ri baholashi talab etiladi. Shu maqsadda tergovchilar va tezkor xodimlar ularni to‘g‘ri baholashlari, ishonchliligi, to‘liqligi, tegishliligi va yo‘l qo‘yilishi hamda kelgusida jinoyat-protsessual shaklda dalil manbalari sifatida foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishlari kerak[5].

Jinoiy uyushmani fosh qilishda asosan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish bilan birgalikda ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish, tintuv, ekspertiza va taftish tayinlash, gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini so‘roq qilish, tanib olish uchun ko‘rsatish va telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish kabi tergov harakatlarini o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan shaxslar so‘roq davomida kelgusida jazolash, ishdan bo‘shatish, maxsus unvonini oldirib tashlash to‘g‘risidagi tahdid qilishi, qoida tariqasida, ularning uyushgan jinoiy tuzilmaga mansubligini tasdiqlaydi, ba’zan bu davlat amaldorlari orasida “rahnamo”larga egaligidan dalolat beradi. Shuningdek, jinoiy uyushma a’zolaridan birortasi ushlanishi bilanoq boshqa a’zolari chet davlatlardan tajribali advokatni tergovga yuborishi holatlari kuzatiladi[6].

Tergovchi va tezkor xodim jinoiy uyushma tashkil etish jinoyatlarini ochishda va tergov qilishda jinoiy uyushma a’zolarining huquqni muhofaza qiluvchi organlarda katta lavozimdagi mansabdor shaxslarga aloqasi bor yoki yo‘qligiga e’tibor qaratishlari zarur.

Uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy ushmalarning faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, quyidagi holatlar ushbu jinoiy tuzilmaning asosiy jinoiy yo‘nalishini aniqlashga yordam beradi:

- bir necha yoki bir, lekin eng muhim jinoiy tajovuz obyektiga nisbatan iqtisodiy faoliyat sohasida jinoyat sodir etishga puxta o‘ylangan tayyorgarlik belgilari;
- iqtisodiyot sohasida yuqorida aytib o‘tilganidek, ma’lum bir yo‘nalishda jinoiy faoliyatni faollashtirish;
- jinoyat obyekti (bank, investitsiya fondi va boshqalar) faoliyati to‘g‘risidagi aniq bilimlarni qo‘llash[7].


Shu bilan birga uyushgan jinoyatchilar tergovning dastlabki bosqichlarida, agar jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa ham, ularni fosh qilish harakatlariga o‘ylangan, samarali qarshilik ko‘rsatishga intiladi. Umuman, so‘nggi yillarda uyushgan jinoiy guruhlar odil sudlovga qarshilik ko‘rsatish faoliyatini sezilarli darajada kuchaytirdi. Uyushgan jinoyatchilikning yirik iqtisodiyotga kirib borishi muqarrar ravishda siyosiy hokimiyat tutqichlariga kirish masalasini keltirib chiqaradi. Binobarin, jinoiy muhitning o‘z vakillarini saylangan hokimiyat organlariga ko‘tarishga qaratilgan maqsadli harakatlari mutlaqo tabiiydir. Bu maqsadlar uchun katta mablag‘ ajratilmoqda, ishbilarmon doiralar, davlat va boshqaruv organlariga ta’sir o‘tkazilmoqda, siyosiy partiyalar mansabdor shaxslari, ularning joylardagi faollari bilan aloqalar o‘rnatilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda kuzatilayotgan jinoyatchilikni siyosiylashtirish va siyosatni kriminallashtirish jarayonlari uyushgan jinoyatchilik vakillari yordamida faol amalga oshirilmoqda[8].

[4] Цепинский С. А. Особенности использования результатов ОРД в расследовании краж и угонов автотранспортных средств в условиях мегаполиса // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Юридические науки. - 2018. Т. 4 (70). № 2. - С. 142-150.
[5] Яблоков Н. П. Организованная преступная деятельность: теория и практика расследования. Учебное пособие. Норма инфра-М. - М., 204. - С. 159.
[6] Фризен Р.Д. Организованная преступность как угроза региональной безопасности. Журнал ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. юридические науки.
[7] Sudenko V. E. The specifics of the investigation of crimes committed by organized criminal groups and criminal communities, including the objects of transport infrastructure // Scientific notes of V. I. Vemadsky crimean federal university. Juridical science. - 2019. - T. 5 (71). № 2. - P. 217-224.
[8] https://be5.biz/pravo/k043/39.html

Jinoiy uyushma tashkil etish jinoyati bo‘yicha quyidagi tergov vaziyatlari yuzaga kelishi mumkin:

- **Jinoiy hamjamiyat (jinoiy tashkilot) tuzilganligi haqidagi ma’lumotlar ma’lum, tashkilotchisi aniqlanmagan. Mazkur tergov vaziyatida tergovchining asosiy vazifasi tashkilotchining shaxsini aniqlashdan iborat. Tadbirlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun tashkilotning qaysi bo‘g‘inlari uning tizimining eng zaif elementlari ekanligini aniqlash kerak, bu tashkilotchi haqida yetishmayotgan ma’lumotlarni olish imkonini beradi.**

- **Jinoiy uyushma tashkilotchisi va rahbarlari ma’lum, jinoiy tashkilotning (jamoaning) vujudga kelish sharoitlari to‘liq aniqlanmagan. Bunday tergov vaziyatida tergovchi tashkilotchining tayyorgarlik choralari, jinoiy hamjamiyatni yaratish usuli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganishi va baholashi lozim. Maksimal sa’y-harakatlar jinoyat epizodlarini, jinoiy hamjamiyatning hajmini, ishtirokchilarning mavqeyini, asosiy jinoiy faoliyatni va umuman jinoiy tuzilma faoliyatining xususiyatlarini aniqlashga qaratilishi kerak.**



Jinoyat olamining nufuzli shaxslari va jinoiy uyushma vakillari hokimiyatga turli yo‘llar bilan kirib olishining oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari nihoyatda sergak bo‘lishlari, tezkor-profilaktik tadbirlarni yuqori darajada amalga oshirishlari lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi muayyan turdagi jinoyatlarni sodir etish usullari, vaqti, joyi, jinoyat izlari va jinoiy oqibat, jinoyatchining motiv va maqsadi, jinoyatchining shaxsi va jinoyatlarni sodir etish sharoitlari hamda tergov vaziyatlari kabi elementlarni o‘z ichiga olgan jinoyatlarni ochish va tergov qilishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidagi tushunchalarning majmuidir.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning oldini olish va unga karshi kurashish, aybdor shaxslarning qilmishlarini fosh qilish va ularga jazo muqarrarligini ta’minlash maqsadida tergovoldi tekshiruvi, surishtiruv va dastlabki tergov davomida kriminalistik fotografiya, kriminalistik videoyozuv, diktofon, GPS kuzatuv qurilmasi, billing, vaziyatlar markazi, dron, chiziqli bo‘lmagan lokator, kriminalistik tadqiqot o‘tkazish uchun universal qurilmalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Jinoiy uyushma tashkil etish va uyushgan guruhlar sodir etgan jinoyatlar bo‘yicha jinoyat ishlarida ishtirokchilar soni kam yoki ko‘pligidan qat’i nazar tergovchi har bir holatni sinchkovlik bilan tizimli ravishda atroflicha tergov qilishi kerak. Chunki jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq, balki mamlakat xavfsizligiga katta tahdid hamdir.

Sherzod JALOLOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi
bosh ilmiy xodimi, dotsent